



ISLOM VA AN'ANAVIY BANKCHILIKNING FARQLI JIHATLARI DIFFERENCES BETWEEN ISLAMIC AND TRADITIONAL BANKING

¹*Davlatova Sitorabonu
Uyg'un qizi*

¹*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
"Bank ishi va buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada islomiy va an'anaviy banklar faoliyatidagi konseptual farqlar chuqur tahlil qilinib, ularning xizmat ko'rsatish mexanizmlari, mijozlarga taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar hamda ushbu xizmatlarning iqtisodiy va huquqiy asoslari atroflicha yoritilgan. Xususan, foizsiz moliyalashtirish tamoyiliga asoslangan islomiy banklar faoliyati bilan risklarni foiz stavkalari orqali boshqarishga yo'naltirilgan an'anaviy bank tizimining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, mijozlar ehtiyojlarini qondirishda har ikki modelning ustun va zaif jihatlari, ularning zamonaviy moliya bozoridagi ahamiyati hamda rivojlanish istiqbollari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan ochib beriladi.

Eng. - This article provides an in-depth analysis of the conceptual differences between Islamic and conventional banks, focusing on their service delivery mechanisms, the nature of financial products offered to clients, and the underlying economic and legal foundations. In particular, it examines the principles of interest-free financing in Islamic banking in comparison with the interest-based risk management model of conventional banks. Furthermore, the article highlights the strengths and weaknesses of both systems in meeting customer needs, while also assessing their significance in the modern financial market and exploring their prospects for future development from both theoretical and practical perspectives.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *islom banki, an'anaviy bank, ribo, g'arar, maysir, foiz, shariat, ribo al-fazl, ribo an-nasiya.*
❖ *Islamic bank, traditional bank, riba, gharar, maysir, interest, sharia, riba al-fazl, riba an-nasiya.*

Kirish.

So'nggi yillarda islomiy moliya tizimining faoliyatiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Ushbu tizim dinamik rivojlanib, jahon moliya bozorida tobora mustahkam o'rin egallab bormoqda. Islomiy moliyaviy tashkilotlar va institutlar soni muntazam oshib bormoqda, yangi islomiy sug'urta fondlari va kompaniyalar tashkil etilmoqda hamda ular musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham faoliyatini kengaytirmoqda. Islomiy moliyaviy

tashkilotlarning keng ko'lamli bitimlarni tashkil etish va ularni qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlari, salohiyati va kompetensiyalari kengayib bormoqda. Jahon moliyaviy inqirozi hamda globallashuv jarayonlarining kuchayishi sharoitida islomiy moliyaning rivojlanish tendensiyasi ushbu jarayonning mohiyatini ilmiy tahlil qilishni talab etadi.

Mamlakatimizda islom iqtisodiyoti va moliyasini rivojlantirish maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozorini kengaytirish hamda sohaga raqobatni joriy etish maqsadida kamida uchta bankda islomiy moliya mezonlari va tartiblarini tatbiq etish, shuningdek, islomiy moliyaning huquqiy asoslarini shakllantirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1]. Mazkur vazifalar mamlakat moliya bozorida islomiy bankchilik va moliya tizimining bosqichma-bosqich shakllanishi, xalqaro standartlarga mos tartib-taomillarni joriy etish, investitsion muhitni yaxshilash hamda aholining keng qatlamlari uchun yangi moliyaviy xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi. Shu bilan birga, islomiy moliyaning joriy etilishi respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi I. Zaripov tadqiqotlarida zamonaviy dunyoda islomiy moliya barqaror rivojlanib, yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etayotganini ta'kidlagan hamda islomiy moliyaga an'anaviy "pul narxi" tushunchasi o'rniga yangi "kapital samaradorligi" atamasi kiritilganini qayd etgan [2].

A. Tursunov o'z tadqiqotlarida islomiy bankni "islom shariati asosida bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarga pul mablag'larini jalb etish, jismoniy va yuridik shaxslarni moliyalashtirish hamda boshqa bank xizmatlarini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti" ekanini ta'kidlaydi. Shariat (Islom dini qonunlari majmuasi) ushbu operatsiyalarning qonuniy bo'lishini talab qiladi [3]. Ya'ni, shariat tomonidan ruxsat beriladigan, jamiyat uchun xavfsiz bo'lgan ishlab chiqarish loyihalari moliyalashtiriladi va har qanday operatsiyalar bo'yicha foizlarni to'lash yoki olish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

S. Abrorovning xulosasiga ko'ra, islom moliyasida konseptual tamoyillar va shariat qoidalaridan kelib chiqib, an'anaviy moliya tizimida qo'llaniladigan, islom tamoyillariga mos kelmaydigan instrumentlar o'rniga muqobil islomiy moliyaviy instrumentlar ishlab chiqilgan [4]. Islom moliyaviy instrumentlari o'z tamoyillarini inobatga olgan holda to'rt guruhga bo'linadi: foyda va zarar taqsimlash, qarz, ijara hamda o'zaro kafolatlash.

A. Журавлев tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, islom moliyasiga oid mustahkam huquqiy baza yaratilgan taqdirda, an'anaviy va islomiy moliyaviy institutlarning yagona huquqiy maydonda faoliyat yuritishi mumkin [5]. Bunday sharoitda ushbu institutlarni samarali tartibga solish maqsadida ikki alohida qonuniy mexanizmni qo'llash ehtimoli yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada, islom banklari va an'anaviy banklar o'rtasidagi asosiy farqlarni aniqlashda taqqoslama tahlil, qiyoslash kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliyaviy vositachilik jarayonida banklar iqtisodiyot subyektlari o'rtasida vositachi sifatida faoliyat yuritadi. Banklar moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga ham ko'maklashadi. Shu nuqtai nazardan, banklar nafaqat moliyaviy oqimlarni tartibga soluvchi vositachi, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional subyektlaridan biri hisoblanadi. Banklarning asosiy maqsadi foyda olish bo'lib, ularning daromad marjadan shakllanadi.

An'anaviy banklarning asosiy funksiyasi jamg'armalarni jalb qilish va ularni samarali taqsimlashdan iboratdir. Bank mijozlardan asosan depozitlar shaklida mablag'larni yig'adi hamda ularga oldindan belgilangan foiz stavkasi bo'yicha daromad to'laydi. Ushbu resurslar keyinchalik boshqa mijozlarga odatda o'rta va uzoq muddatli kreditlar shaklida,

ko'pincha depozitlarga to'langan foiz stavkasidan yuqoriroq foiz evaziga beriladi. Olingan va to'langan foiz stavkalari o'rtasidagi farq bankning foiz marjasini tashkil etadi.

Moliyaviy vositachilik jarayonida banklar bir qator risklarni ham zimmasiga oladi. Jumladan, ular likvidlik riskini qabul qiladi, chunki omonatchilar o'z mablag'larini istalgan vaqtda talab qilish huquqiga ega, biroq bank kreditlarni muddati tugamasdan qaytarib ololmaydi. Shuningdek, banklar kredit riskini ham o'z zimmalariga olishadi, ya'ni qarz oluvchilarning majburiyatlari belgilangan muddatlarda so'ndirilmasligi mumkin. Ushbu risklar bank faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, olingan foyda mazkur xavflarni qabul qilish va ularni boshqarish evaziga shakllanadigan iqtisodiy kompensatsiya sifatida qaraladi.

Islomiy banklardagi moliyaviy vositachilik mexanizmi an'anaviy

banklarnikidan tubdan farq qiladi. Islom moliya tizimida pulning tabiati tovar sifatida emas, balki ayirboshlash vositasi sifatida talqin etiladi. Shu boisdan, puldan to'g'ridan-to'g'ri pul ishlab topish, ya'ni kreditlar orqali foiz (ribo) shaklida daromad olish qat'yan taqiqlanadi. An'anaviy banklarda jamg'arilgan mablag'larni kreditlarga yo'naltirish amaliyoti mavjud. Islomiy banklarda esa ushbu mexanizm shariat qoidalariga zid bo'lgani sababli qo'llanilmaydi. Buning o'rniga, islom moliya institutlari foyda va zarar taqsimoti, sheriklik (mushoraka), mudoraba, ijara va boshqa shariatga mos instrumentlar orqali moliyaviy vositachilikni amalga oshiradi. Islomiy qonunchilikda ribo (foiz) qat'yan taqiqlangan bo'lib, u qarz berishda qarz oluvchidan qo'shimcha foyda olish maqsadida kelishilgan har qanday ortiqcha qiymatni anglatadi.

1-jadval

Islomiy va an'anaviy moliyaviy vositachilik o'rtasidagi farq*

Model / Bosqich	Subyektlar (rol)	Amal / Harakat	Shartlar / Natija
An'anaviy bank	Omonatchilar (ortiqcha mablag')	Mablag'larni bankka depozit qiladi	Bank qat'iy 2% foiz to'laydi
	Bank	Mablag'larni qarz oluvchilarga beradi	6% foiz bilan kredit beradi
	Qarz oluvchilar / Tadbirkorlar (yetishmagan mablag')	Kredit mablag'ini oladi	6% foiz to'laydi
Islomiy bank - 1-bosqich Mudoraba	Omonatchilar (Rab ul-mol)	Mablag'larni islom bankiga depozit qiladi	Bank Mudarib sifatida kapitaldan foydalanadi
	Islom banki (Mudarib)	Mablag'ni boshqaradi	Foyda - kelishilgan nisbatda taqsimlanadi; Zarar - omonatchilar kapitalini yo'qotadi, bank faqat mehnatini yo'qotadi
Islomiy bank - 2-bosqich Mudoraba	Islom banki (Rab ul-mol)	Mablag'larni qarz oluvchilarga/tadbirkorlarga beradi	Qarz oluvchilar Mudarib sifatida faoliyat yuritadi
	Qarz oluvchilar / Tadbirkorlar (Mudarib)	Mablag'dan foydalanadi	Foyda - kelishilgan nisbatda taqsimlanadi; Zarar - bank kapitalini yo'qotadi, tadbirkor faqat vaqt va mehnatini yo'qotadi

*Muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.

Ribo an-nasiya - qarz muddatini uzaytirish evaziga qo'shimcha to'lov talab qilish holati. Masalan, qarz qaytarish muddati

o'tganidan so'ng qarz miqdoriga qo'shimcha qo'shib, uni kechiktirib qaytarishga ruxsat berish. Ushbu amaliyot qarz oluvchini og'ir

ahvolga solishi va iqtisodiy adolatsizlikni keltirib chiqarishi sababli taqiqlangan.

Ribo al-fazl – bir xil turdagi moddiy boyliklarni teng bo'lmagan miqdorlarda almashish. Masalan, ikki kilogramm bug'doyni uch kilogramm bug'doyga almashtirish ribo al-fazl hisoblanadi. Bunday amaliyot tengsizlikka olib kelishi bois shariatda man qilingan.

Shuningdek, islomiy moliyada ribodan tashqari quyidagi taqiqlar ham mavjud:

G'arar – noaniqlik va haddan tashqari tavakkalchilikni anglatadi. Natijasi noma'lum yoki shartlari aniq belgilanmagan bitimlar g'arar sifatida baholanadi. Masalan, tovar yoki xizmat haqida to'liq ma'lumot berilmasdan tuzilgan shartnoma bunga misol bo'ladi.

Maysir – qimor o'yinlari, spekulatsiya va chayqovchilik faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu turdagi faoliyatlar ishlab chiqarish va adolatli mehnatga emas, balki tasodif va

tavakkalchilikka asoslanganligi sababli taqiqlanadi.

Shariatda man qilingan faoliyatlarni moliyalashtirmaslik – masalan, spirtli ichimliklar ishlab chiqarish, tamaki mahsulotlari, cho'chqa yetishtirish va savdosi kabi faoliyatlarni qo'llab-quvvatlash qat'iyman etilgan.

Risk va foydaning adolatli taqsimlanishi – barcha moliyaviy bitimlar ishtirokchilar o'rtasida majburiyat va xatarlarning mutanosib taqsimotiga asoslanadi. Ya'ni, foyda olish uchun taraflar biznes risklarini ham o'z zimmasiga olishi lozim.

Islom moliyasida vositachilik foizi foyda va zararni taqsimlash bilan almashtiriladi. Ya'ni, debit-kredit konsepsiyasi o'rniga islomiy banklar mudaraba tushunchasidan foydalanadilar.

2-jadval

Islomiy va an'anaviy banklarning farqlari*

Nº	Xususiyatlar	An'anaviy bank	Islomiy bank
1	Riskni taqsimlash	Risk depozitorlar va bankdan qarz oluvchilar yoki tadbirkorlarga o'tkaziladi	Risk depozitorlar, bank va qarz oluvchilar yoki tadbirkorlar o'rtasida taqsimlanadi
2	Iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalish	Asosan iqtisodiy farovonlik va foyda maksimalashtirish tamoyiliga qaratilgan.	Jamoaga yo'naltirilgan, tadbirkorlikni rag'batlantiradi, jamiyatda adolat va halollikni targ'ib qiladi, axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy asosga tayanadi.
3	Pul qiymati	Pulning qiymati vaqtdan kelib chiqadi, ya'ni foiz pulning narxi hisoblanadi.	Pul tovar emas va uning narxi yo'q
4	Foyda/zarar taqsimoti	Depozitorlar belgilangan foiz oladilar va depozitlar majburiyat sifatida qaraladi	Investitsion hisob egalarini bank sherik sifatida ko'radi va ular foyda va zararlarni taqsimlashadi.
5	Depozit kafolati	Barcha depozitlar kafolatlangan.	Faqat joriy hisob depozitlari kafolatlanadi.
6	Bank-mijoz munosabatlari	Bank-mijoz munosabati kredit beruvchi va qarzidor sifatida qaraladi.	Shartnomaga qarab sheriklar, prinsipal va agent, investor va menejer, xaridor va sotuvchi, ijaraga beruvchi va ijarachi kabi bo'lishi mumkin.
7	Aktivga bog'langanlik	Bitimlar sof moliyaviy bo'lishi mumkin, real aktivlarga bog'lash majburiy emas	Barcha moliyaviy bitimlar aktivlarga asoslangan yoki aktiv bilan ta'minlangan bo'lishi kerak
8	To'lovni kechiktirish	Qarz vaqtida qaytarilmasa, foiz ustiga foiz hisoblanadi (penya)	Hech qanday jarima olinmaydi, faqat qarzni undirish xarajatlari olinadi, qo'shimcha jarima bo'lsa ham xayriyaga beriladi
9	Taqiqlar	Moliyalashtiriladigan loyihalar va fondlarga hech qanday cheklov yo'q	Faqat Shariatga muvofiq loyihalar va investitsiyalar moliyalashtiriladi

*Muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.

Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar qo'shma institutining (CISI, 2015) "Islom banki va moliyasi asoslari" nomli qo'llanmasida qayd etilishicha, an'anaviy va islomiy banklar o'rtasida quyidagi o'xshashliklar mavjud [6]:

Har ikkisi turdagi banklar markaziy bank tomonidan litsenziyalangan bo'lib, jamiyatdagi bo'sh pul mablag'larini depozitlarga jalb etadi hamda ushbu mablag'larni qarz oluvchilarga yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarga taqdim etuvchi moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaradi.

Har ikki turdagi banklar pul mablag'larini saqlash va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun foizsiz joriy hisobvaraqlar va debet kartalarini taklif etadi.

Oddiy banklarning muddatli depozitlari va islom banklarining investitsiya hisobvaraqlarida mijozlar o'z mablag'larini ma'lum muddatga joylashtiradi. Farqi shundaki, an'anaviy banklar oldindan belgilangan miqdorda foiz to'laydi, islom banklarida esa foyda oldindan kelishilgan ulush asosida taqsimlanadi.

Likvidlikni boshqarish jarayonida har ikkala turdagi banklar banklararo bozordan foydalanadi.

Shu bilan birga, o'xshashliklarga qaramasdan, islomiy va an'anaviy banklar o'rtasida bir qator tub farqlar mavjud. Quyidagi jadvalda islomiy va an'anaviy banklarning ayrim asosiy farqlari tahlil etiladi.

An'anaviy banklarning islomiy banklarga transformatsiyasi jarayonida zaruriy shartlardan biri – Shariat kengashining mavjudligi hisoblanadi. Islomiy banklar tuzilmasida Shariat kengashi mustaqil nazorat organi sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu kengashning asosiy vazifasi bank faoliyatida shariat tamoyillari va qoidalariga rioya etilishini ta'minlashdan iboratdir. Xususan, bank tomonidan amalga oshiriladigan

moliyaviy operatsiyalar, investitsiya loyihalari va xizmat turlari shariat normalariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi va baholanadi. Shunday qilib, Shariat kengashining faoliyati islomiy bank tizimining huquqiy va axloqiy asoslarini mustahkamlaydi hamda an'anaviy banklardan farqli ravishda moliyaviy vositachilikning shariat qoidalariga mos tarzda amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Xulosa va takliflar.

Islomiy banklar an'anaviy banklardan shariat tamoyillariga tayanishi hamda foyda va zararlarni taqsimlash mexanizmlariga ko'ra farqlanadi. Har ikkala turdagi banklar Markaziy bank tomonidan litsenziyalanadi, mijozlarga turli xil moliyaviy mahsulotlar taklif qiladi va o'z likvidligini banklararo bozor vositalari orqali boshqaradi.

Biroq, mazkur bank tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlar bir qator yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan:

- ❖ foyda va zararlarni taqsimlash mexanizmlarida;
- ❖ omonatchilar daromadlilikini kafolatlash darajasida;
- ❖ bank-mijoz munosabatlari mazmunida;
- ❖ jarimalar qo'llash tartibida;
- ❖ mahsulotlar tarkibida va shariat talablariga rioya qilish masalalarida.

Markaziy bank bilan o'zaro munosabatlar nuqtayi nazaridan, an'anaviy va islomiy banklar o'rtasida katta tafovut mavjud emas. Har ikkala tizimda ham Markaziy bank regulyator vazifasini bajaradi, kliring xizmatlarini taqdim etadi va majburiy zaxira talablarini belgilaydi. Shu tariqa, islomiy va an'anaviy banklarning umumiy jihatlari ko'p bo'lsa-da, ularning asosiy tafovutlari shariat talablariga amal qilish hamda moliyaviy vositachilik mexanizmlarida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston-2030» strategiyasi tog'risidagi PF-158-sonli Farmoni.

2. Зарипов И.А. (2016) *Исламские финансы как стратегический ориентир развития России.*
3. Tursunov A. *Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati, Toshkent 2021-y. 59 b.*
4. Abrorov S. *O'zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog'ozlarni joriy etish istiqbollari. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati, Toshkent 2020-y. 19 b.*
5. Журавлев А.Ю. (2017) *Исламский банкинг. М. «Садра». 129 с.*
6. Chartered Institute for Securities & Investment's, *International Introduction to Securities& Investment study material. June 2015.*

